



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 15-16 (910-911)
22-oktyabr, payshanba
2020-yil

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Gazeta 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

INSON BAXTI VA JAMIYAT RAVNAQI YO'LIDA

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Shu yilning 23-sentyaborda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasini yetmish beshinchi sessiyasida nutq so'zlandi.

Bu safar Bosh Assambleyaning sessiyasi jahondagi kechayotgan epidemiologik vaziyat sababli video-anjuman shaklida o'tdi. Barchamizni quvontirgan, qalbimizga surur bag'ishlagan jihat shundan iborat birinchi marta BMT tarixida Shavkat Mirziyoyev o'zbek tilida nutq so'zlandi. Yurtboshimiz o'zbek tilining go'zal til ekanini ko'rsatdi. Bundan butun dunyodagi o'zbeklar va qardosh xalqlar bag'oyat quvondi.

Prezidentimizning Assambleyaning 75-sessiyasida mazmunli nutqiga to'xtalib o'tsak:

BMT shafeligida pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqish taklif etildi;

Bosh kotib Antoniu Guterrish janoblarining bugungi inqirozli vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning

dolzarb muammolariga bag‘ishlangan summitni o‘tkazish bo‘yicha taklifi ma’qullandi;

Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga chaqirildi;

Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta’minlashda parlamentlar rolini oshirish to‘g‘risidagi BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etildi;

BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish taklif etildi;

Mintaqaviy qo‘shma rejanning 10 yillik natijalari va kelgusi istiqbollariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyanı o‘tkazish taklif etildi;

2021-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida «Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasiда» degan mavzuda xalqaro forumni o‘tkazishga O‘zbekiston tayyorligi ma’lum qilindi;

BMT huzurida afg‘on xalqining dard-u tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko‘rsatadigan qo‘mita tashkil etish taklif etildi;

Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va tex-

nologiyalar hududi, deb e’lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etildi. Shuningdek, ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlandi;

Qashshoqlikni tugatish va kambag‘allikka qarshi kurashishni BMT Bosh Assambleysi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag‘ishlangan global summitni o‘tkazish taklif etildi;

O‘zbekiston jahoning barcha mamlakatlari bilan keng ko‘lamlili va o‘zaro manfaatli sheriklikni, BMT va uning institutlari bilan amaliy muloqoni rivojlantirish uchun doimo tayyorligi ma’lum qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyası 75-sessiyasida o‘zbek tilida aytilgan taklif va g‘oyalarini butun dunyo jamoatchiligi katta qiziqish bilan qarshi oldi. Bir qator dunyoga mashhur nashrlarda peshma-pesh munosabatlar ham chop etildi.

– Men hayotini o‘zbek tili ni o‘rganish va uni hind talaba yoshlariiga o‘rgatishga bag‘ish-

lagan Hindiston olimi sifatida shuni qayd etishni istardimki, yaqin o'tmishda bunday katta minbardan turib o'zbek tilida so'zlashni tasavvur qilish mushkul edi.

O'zbekiston zaminida Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom al Buxoriy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab allomalar tavallud topgan va faoliyat yuritgan, – dedi Hindistonning Jamiya Milliya Islomiya universiteti o'zbek tili o'qituvchisi, professor Shahid Taslim. – O'z zamonasida ushbu allomalar dunyo siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda O'zbekiston rahbarining oqilonna tashabbuslari dunyo hamjamiyati tomonidan munosib kutib olinmoqda. Fikrимning dalili sifatida O'zbekiston Re-

spublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari o'tkazishni yo'lga qo'yish, BMTning «Ma'rifat va diniy bag'riken-glik» maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasini ishlab chiqish, Orolbo'y muammosiga e'tiborni oshirish va Afg'oniston muammosini hal etish kabi masalalarga oid beshta taklifining aksariyati hozirga qadar amalga oshganini ta'kidlash kifoya.

Bu tarixiy nutq o'zbek tilining xalqaro miqyosdag'i obro'-e'tiborini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, farzandlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat etadi.

Bu nutqda O'zbekistonning siyosiy yondashuvi aniq

va teran ekani ko'rindi. Xususan, Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini yo'lga qo'yilishi, tinchlik va barqarorlikning ta'minlanishi bugungi globallashuv sharoiti da O'zbekiston ilgari surayotgan ezgu g'oyalarning natijasi yana bir bor dunyo hamjamiyatiga teranroq tushuntirildi, aytildi. Bir so'z bilan aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surilayotgan taklif va g'oyalar hech shubhasiz, inson baxt va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasidagi ma'ruzasini ona tilimizda bayon etishi tariximizdag'i nafaqat ijtimoiy, balki chuqur siyosiy hodisa hamdir. Mohiyat-e'tibori bilan bu harakat chin ma'nodagi qudratli davlat barpo etish yo'lida tashlangan katta qadamdir.

MEHR-SAXOVAT JONKUYARLARI MUNOSIB TAQDIRLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi Farmoniga muvofiq «Mehr-saxovat» ko'krak nishoni ta'sis etilgandi.

Ushbu ko'krak nishoni koronavirus pandemiyasi davrida, shuningdek, turli tabiiy ofatlar, favqulodda holatlar tufayli el-yurtimiz boshiba tushgan sinovli kunlarda mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurashda, ularning oqibatlari ni bartaraf etishda mardlik va jasorat namunasini ko'rsatgan, milliy qadriyat va an'analarimizni munosib davom ettirib, mehr-oqibat, saxovat, himmat va olijanoblik fazilatlari-

ni ulug'lab kelayotgan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga beminnat ko'mak berish borasidagi ishlarni umumxalq harakati darajasiga ko'tarishga katta hissa qo'shgan, beg'araz homiylik yordami hamda ezgu ishlari bilan ko'pchilikka alohida o'rnak bo'layotgan yurdoshlarimiz va fuqarolarimizni taqdirlash maqsadida ta'sis etildi.

Mamlakatimizda hukumat tomonidan tezkor tarzda keng qamrovli karantin chorralari ko'rildi. Sanitar-epidemiologik talablarga qat'iy

rioya etgan holda qayta ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasalarga joylashtirilgan bemorlarni davolash uchun barcha mablag'lar yo'naltirildi. Xorijda bo'lgan fuqarolarimiz charter reyslari orqali Vatanimizga qaytarilmoxda. Bu respublikamiz fuqarolarining davlatimiz qaramog'ida ekanligini ko'rsatadi.

Hozirda olim va shifokorlar, laborantlar va sanitarlar, tez yordam shifokorlari mamlakatimizda koronavirus kasalligi bilan bog'liq vaziyatni nazorat ostida ushlab turish uchun yagona ulkan mexanizm kabi tinimsiz mehnat qilmoqda-

lar. Ularning aksariyati hozir ham qiyinchiliklarga qaramay, bemorlarga tun-u kun yordam berib kelyapti.

Bunday murakkab jarayonda tibbiyat xodimlarini, shifoxonalar va poliklinikalarda har kuni insonlar salomatligi haqidagi qayg'urayotgan, koronavirus infeksiyasining oldini olish va tashxis qo'yish bilan shug'ullanayotganlarni qo'llab-quvvatlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi Farmoniga muvofiq «Mehr-saxovat» ko'krak nishoni bilan Toshkent Pediatriya tibbiyat institutining 28 nafar xodimi – koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda fidoyilik ko'rsatganligi uchun mukofotlandi.

Hayitov Qahramon Najmiddinovich – O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Jalilov Abdumalik Ahadovich – Davolash ishlari bo'yicha prorektor institut klinikasi bosh shifokori;

Gulyamov Sur'at Saidvaliyevich – Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Rahmatullayev Akmal Abadbekovich – 1-Pediatriya fakulteti dekani;

Ashurova Dilfuza Tashpu latovna – 2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakulteti dekani;

Valiyev Abdusamat Razzaqovich – Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti dekani;

Nurxodjayev Sobir Nasir xodjayevich – Xalqaro fakulteti dekani;

Abdullayev Sherzod Saydul layevich – Magistratura dekani;

Ro'ziyev Sherzod Ibadulla-

yevich – Ilmiy Kengash kotibi;

Ubaydullayeva Sevara Abdullayevna – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i;

Tadjiyev Mirhotam Mirhoshimovich – Klinik bazarlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i;

Nasirov Abdulaziz Axmatul layevich – Rektor yordamchisi;

Abidov Hasanho'ja Alisherovich – Rektoring yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi - institut Yoshlar ittifoqi yetakchisi, Matbuot xizmati rahbari – matbuot kotibi;

Aliyeva Nigora Rustamovna – 1-Gospital pediatriya, noan'anaviy tibbiyat asoslari kafedrasi mudiri;

Yo'ldoshev Ilhom Ruzievich – Allergobiya, klinik immunobiya, mikrobiobiya kafedrasi mudiri;

Rahimg'oziyev Umid G'oziboyevich – Ambulator tibbiyoti, jismoniy tarbiya kafedrasi assis tenti;

Abdulloqulov Umid Mahmudjonovich – Xirurgik kasalliklar kafedrasi assistenti;

Ismoilov Farhod Mirjallovich – Umumiylar xirurgiya, topografik anatomiya va operativ xirurgiya asoslari kafedrasi assistenti;

Zuparov Kamoliddin Far hodovich – Umumiylar xirurgiya, topografik anatomiya va operativ xirurgiya asoslari kafedrasi assistenti;

Ashurova Gulchehra Zakirjonovna – Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrasi assistenti;

Eshonqulova Baxriniso

Do'stmurodovna – Anatomiya, patologiya anatomiya kafedrasi assistenti;

Kaldibayeva Akmara O'rinsbasarovna – Farmakologiya, fiziologiya kafedrasi assistenti;

Galiulin Talgat Izliyevich – Ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasi assistenti;

Ahmedov Elyor Alla yarovich – Tibbiy radiologiya kafedrasi assistenti;

To'xtamurodov Ziyodulla – Umumiylar xirurgiya, topografik anatomiya va operativ xirurgiya asoslari kafedrasi assistenti;

Ahralov Sherzod Far hadovich – Tibbiy radiologiya kafedrasi assistenti;

Ergashev Jamol Jo'rabyevich – Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi, bolalar stomatologiyasi kafedrasi assistenti;

Erkinov Olimjon Ravshan o'g'li – Magistratura 2-bosqich talabasi.

Jahon miqyosida keng tarqalib, global muammoga aylangan koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashda va turli tabiiy ofatlar oqibatini bartaraf etishda mardlik va jasorat namunasini ko'rsatgan, mehr-oqibat, saxovat, himmat va oljanoblik fazilatlari ni ulug'lab, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga katta hissa qo'shgan hamkasblarimizga "Mehr-saxovat" ko'krak nishoni muborak bo'lsin.

X. Abidov

YOSHLAR PARLAMENTI – YOSHLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

Bugungi kun yoshlari dunyo miqyosida o‘z erkinliklari, qonuniy huquqlari va manfaatlariga oid dolzarb muammolarni hal qilish va ularga ta’sir ko‘rsatisha demokratik va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining haqiqiy ishtirokchisiga aylanmoqda.

Respublikamizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta’milash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzurida Yoshlar parlamenti tashkil etildi.

Bu esa yosh avlodga ularning manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadigan muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilish jarayonida ishtirok etish uchun platforma vazifasini bajaradi.

Ma’lumki, Oliy Majlis huzurida Yoshlar parlamenti yoshlarning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirish maqsida tashkil etilgan.

Respublikamizda ilk bor tashkil etilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzurida “Yoshlar parlamenti”ga saylovlar yakuniga yetib kuni kecha yosh deputatlar saylandi. Mamlakatamiz menha bildirgan ishonch natijasida men ham “Yoshlar parlamenti” a’zosi degan sharafli nomga ega bo‘ldim.

Yoshlar orasidan saralab olingan deputatlar qonun loyihibarini o‘rganish, yoshlar orasida muhokama etish, qonun loyihibarini takomillashtirish yuzasidan fikr va mulohazalarini qonun loyihibariga singdirish, qabul qilingan qonunlar mohiyatini keng jamoatchilik ommasiga tushuntirish, shuningdek Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi qo‘mitalari va komissiyalari bilan yaqindan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

“Yoshlar parlamenti” deputatlari tomonidan yoshlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarni himoya qilishga oid qonun

hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi, shuningdek qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotining dolzarb muammolarini yoshlar ishtirokida muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar shakllantiriladi.

“Yoshlar parlamenti” deputatlari oldida yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yosh vatandoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, odam savdosi va noqonuniy mehnat migratsiyasiga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga ko‘maklashish, yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarning oldini olishda samarali mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, ularning intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik, badiiy dunyoqarashini kengaytirishga ko‘maklashish kabi dolzarb yo‘nalishlarda faoliyatlarini amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

“Yoshlar parlamenti”ning tashkil etilishi yoshlar orasida parlamentarizm an‘analarini o‘rganish, turli siyosiy partiylar tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni chuqr-

roq tahlil qilish va kelgusida saylovchilar manfaatlarini himoya qilishga oid qonun loyihibarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi huzurida tashkil etilgan "Yoshlar parlamenti"ga 250 nafar iqtidorli yoshlar saylandi. Yosh deputatlar o'zлari ko'rsatilgan

partiyalari dasturidan kelib chiqqan holda qonun ijodkorligi jarayonlarida faol ishtirot etishi, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish uchun muhim bo'lgan yangi va ustuvor yo'naliishlarni belgilashi, yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladilar degan umiddaman.

*Xasanxodja ABIDOV
ToshPTI rektorining yoshlari
masalalari bo'yicha maslahatchisi – institut Yoshlar
ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yoshlari yetakchisi,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik
palatasi huzuridagi Yoshlar
parlamenti a'zosi*

YO'LINGDA UCHRASA YAXSHI INSONLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ta'limgardiyalar tizimida alohida o'rnatko'rsatgan xodimlar qatorida ToshPTI Akademik litseyi kimyo fani o'qituvchisi Dilshod Haydarov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Dilshod Haydarov 2004-yili O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakultetiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilinib, 2008-yili imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Shundan so'ng, 2009-2011-yillarda kimyo fakultetining analitik kimyo kafedrasida magistraturada ta'limgardiyalar bilan taqdirlandi.

U 2010-yildan buyon ToshPTI Akademik litseyida kimyo fanidan dars berib kelmoqda. Dilshod Haydarov 2012-2018-yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining "Fizikkimyoviy tahlil" laboratoriysi mudiri kimyo fanlari doktori, professor T.A. Azizov rahbarligida "Kalsiy va magniy suksinatining bir turli va aralash ligandli koordinatsion birikmalarini sintezi, tuzilishi va qo'llanishi" mavzusida ilmiy izlanishlar olib bordi.

Mazkur mavzu yuzasidan xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida 50 dan ziyod ilmiy maqola va tezislar e'lon qildi. 2018-yili kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qildi.

— Kimyo faniga bo'lgan qiziqishim o'quvchilik paytlarimdan boshlangan. Ayniqsa, 2004-yili Jizzax viloyatida kimyo fanidan 1-o'rinni olib, respublika bosqichiga yo'llanma olganimda o'zimga ishonch paydo bo'lgan, — dedi Dilshod Haydarov. — Bugungi natijalarimda, albatta, ya-



qinlarimning, uztozlarimning ayniqsa Ortiqboy Eshonqulov boshchiligidagi jamoamizning hissasi katta. Xalqimizda bir gap bor-ku, "yo'lingda uchrasa yaxshi odamlar" degan, men doimo ana shunday insonlarga duch keldim.

Dilshod Haydarov o'quvchisi Mohira Boltayeva 2019-yili kimyo fanidan 53-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida bronza medalni, Mirumid Mirakbarov kumush medalini qo'lga kiritdi. O'sha yili yana Mohira Boltayeva 52-ICHO Butun Jahon kimyo olimpiadasida kumush medaliga sazovor bo'ldi. Mirumid Mirakbarov esa, kimyo fanidan respublika olimpiadasida faxrli 1-o'rinni egalladi.

2020-yili Mirumid Mirakbarov kimyo fanidan 54-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida oltin medalni qo'lga kiritdi. 53-ICHO Butun Jahon kimyo olimpiadasida esa kumush medaliga sazovor bo'ldi.

Dilshod Haydarov doimiy ilmiy-ma'naviy izlanishni hayotiy dasturga aylantirgan. Bu unga hamisha kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi tayin. U o'quvchilarga sodda va tushunarli tarzda saboq berishni yo'lga qo'ydi. Ayni shu jihat uning obro'-e'tibor topishni ta'minladi.

D. G'o'chchiyeva

POYDEVOR QO‘YAYOTGAN MURABBIY



Inson hayotda qanday muvaffaqiyatga erishmasin uning ortida ilm va ta’lim-tarbiya turadi. Buni esa, albatta, ustod, o‘qituvchi va murabbiylar beradi. Ular ham yillar davomida ta’lim-tarbiya berar ekan, bora-bora o‘quvchilarini o‘z farzandidek ko‘radi. Erishgan yutuqlardan quvonadi. Quvonch-u tashvishlariga sherik bo‘ladi. Shu bois har birimiz o‘qituvchi va murabbiylarni ko‘rganda ularga o‘z minnatdorligimizni bildirgimiz keladi; hurmat va ehtirom ko‘rsatamiz, ezgu tilaklarimizni bildirib, chin dildan ta’zim qilamiz, bir o‘quvchi sifatida mamnun ekanimizni bildirgimiz keladi.

“O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan mamlakatimizda ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, sohaga doir islohotlarni muvaffaqiyatlama amalga oshirib kelayotgan, yoshlarni ona Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh o‘qituvchi va murabbiylar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi.

Ular qatorida Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyida faoliyat olib borayotgan biologiya fanlari doktori, professor, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi Ortiqboy Eshonqulov “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan mukofatlandi. Yuksak

obro‘e’tibor topgan muallimning ish faoliyati yuz minglab kasbdoshlari uchun namunadir.

Akademik litsey Ortiqboy aka rahbarligida olamshumul yutuqlarni qo‘lga kiritdi. 2008-yili Respublikamizda ilk marta kimyo fani bo‘yicha Mendeleyev xalqaro fan olimpiadasining o‘tkazilishi aynan ushbu o‘quv maskani hayotida tub burilish yasadi. Mamlakatimiz ta’lim tizimi hayotida ilk bor oltin medal qo‘lga kiritildi. Bu medalni esa aynan ana shu akademik litseyning o‘quvchisi olishga muvaffaq bo‘ldi. Bu muvaffaqiyat pedagogik jamoada o‘zgacha ko‘tarinki ruh yaratish bilan birga ularda ertangi kunga da’vat va ishonch uyg‘otdi. Keyinchalik bu ta’lim dargohining o‘quvchilari mazkur xalqaro olimpiadaning boshqa mamlakatlarda bo‘lib o‘tgan bellashuvlarida ham faol ishtirok etib, medallar shodasini qo‘lga kiritdi. Pedagogik jamoaning izlanuvchan rahbari Ortiqboy Eshonqulov bu yutuqlar ko‘lamini kengaytirishga astoydil bel bog‘ladi. Izlanuvchan olim va fidoyi rahbar dastlab kimyo fani bo‘yicha jahon fan olimpiadasida kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. Dunyo bo‘yicha yig‘ilgan yosh kimyogarlarning babsini kuzatib, o‘ziga tegishli xulosa chiqargan Ortiqboy aka asta-sekinlik bilan mamlakatimiz yoshlaringning ushbu jahonshumul bilimlar bellashuvida ishtirokini ta’minalashga erishdi. Dastlabki olimpiadaning o‘zidayoq yurtimiz yoshlari o‘z iste’dodi va salohiyatini amalda namoyon etib, oltin medalni qo‘lga kiritishdi. Bunday kishini quvontiradigan va hayratga soladigan yutuqlar akademik litsey rahbari va o‘quvchilari hayotida anchagina. Masalan, so‘ngi 10 yilda fanlar bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro olimpiadalarda Respublikamiz o‘quvchilari jami 98 ta medal olgan bo‘lsa, shundan 58 ta medal litsey o‘quvchilari hisobiga to‘g‘ri keladi. Joriy yilgi xalqaro olimpiadalarda Respublika bo‘yicha 13 ta medal qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, shundan 9 tasi litsey o‘quvchilari bo‘yniga taqilgan. Bu ulkan natijadan har qancha faxrlansa arziyi.

Ortiqboy aka Eshonqulov mamlakatimiz, balki jahon ilm-faniga qo‘sghan ulkan hissalari, us-

toz, rahbar sifatida 600 nafar litsey o‘quvchilari ga ta’lim-tarbiya berib, yurt kelajagi uchun o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Jumladan, litsey o‘quvchi yoshlari Rossiya, AQSh, Turkiya, Qozog‘izton, Koreya, Singapur, Daniya, Indoneziya, Shvetsariya, Vyetnam, Ozarboyjon, Gruziya, Tailand, Belarus, Eron, Slovakiya va Chexiya, Vengriya, Fransiya kabi ko‘plab mamlakatlar da bo‘lib o‘tgan Xalqaro fan olimpiadalarida o‘z tengdoshlari bilan ilmda bellashib, ko‘p bora g’oliblikni qo‘lga kiritib, yurtimiz bayrog‘i sovrindorlar safida baland ko‘tarildi. Ayniqsa, 2019-yili Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida 1 ta oltin, 1 ta kumush va 1ta bronza; biologiya fanidan 3 ta Jahon olimpiadasida 2 ta bronza; kimyo fanidan 51 Jahon olimpiadasida 2 ta kumush medalni qo‘lga kiritishdi. Bu yutuqlar zamirida davlatimiz rahbari rahnamoligida ta’lim tizimi rivoji, yoshlarning iste’dodi va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun qaratilayotgan ulkan iste’dod mevasi, litsey o‘qituvchi pedagoglarining, rahbariyatining va o‘quvchi yoshlarning tinimsiz mehnatlari mevasi ekanligini quvonch va iftixor bilan aytga olamiz. Ayni damda Ortiq aka rahbarlik qilayotgan akademik litseyda tahsil olgan ko‘plab yoshlar bugungi kunda o‘z sohalarining yetuk kadrlari bo‘lib faoliyat yuritib kelishmoqda. Bugungi shiddatli texnika asri hisoblanchi XXI asr yoshlariiga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ustozning shogirdlari orasida ham ustozlik qilayotgan yoshlарimiz ko‘plab topiladi. Ustoz-shogirdlik an’anasi tom ma’nodagi ma’naviy,



milliy tafakkurning o‘chmas mayog‘idir desak yanglishmaymiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqida: “Bugun men, avvalo, ta’lim-tarbiya sohasi fidoyilariga, barcha yurdoshlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: aziz do’stlar, birodarlar, agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo‘limizdan keladi. Biz ma’rifat borasida, ta’bir joiz bo‘lsa, “iligi to‘q” xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor”, deb bejizga aytmadи. Buni qadim tarix, ajdodlarimizning erishgan yutuqlari ko‘rsatib turibdi.

Yana bir gap, tantanali marosimda mamlakat rahbari: “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish – besh-o‘n yilda bo‘ladigan ish emas. Buning uchun, avvalo, yuzlab, minglab iste’dodli kadrlar, fidoyi shaxslar kerak.

Biz Xudo bergen iste’dodga parvarish zarurligini, agar o‘z vaqtida sharoit yaratib berilmasa, har qanday iqtidor ham so‘nib qolishi mumkinligini yaxshi anglaymiz”, deganida beixtiyor ko‘z o‘ngimda Ortiqboy Eshonqulov keldi.

Hech shubhasiz, aytishimiz mumkinki, Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yayotganlardan biri xalqimizga fidokorona xizmat qilib kelayotgan ustoz-murabbiy Ortiqboy Eshonqulovdir.

Uztozni yana bir bor “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan tabriklaymiz.

R. G‘o‘chchiyeva

DENGIZ



Bir bolaning poyabzali dengizga tushib yo‘qoldi. Sohilda qumlarga shunday yozdi “Bu dengiz – o‘g‘ri”...

Biroz nariroqda bir baliqchi to‘riga mo‘lgina ilingan baliqni qirg‘oqqa tortib olib chiqdi va qumlarga shunday deb yozdi “Bu dengiz-jo‘mard”... Bir yigit dengizga cho‘kib ketdi. Faryodi falakka o‘rlagan ona qumlarga shunday yozdi- “Bu dengiz – qotil”...

Keksa baliqchi kattakon inju qoplangan chig‘anoq topib oldi va qumlarga shunday yozdi:

“Bu dengizning qalbi boy”... Suv to‘lqinlanib sohildagi yozuvlarni o‘chirib yubordi va dengiz mavjiana shunday dedi: “Agar dengiz bo‘lmoqchi bo‘lsang, atrofdagilarning so‘zlariga ahamiyat bermagin!...”

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:

DOTSENTLAR: Neonatologiya; Anatomiya; 2-Gospital pediatriya noananaviy tibbiyat asoslari; Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi

ASSISTENTLAR: 2-Gospital pediatriya noananaviy tibbiyat asoslari Ftiziatriya va pulmonologiya; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi.

Tanlov muddati –e’lon chiqqan kundan 1-oy Manzilgox- Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115,19 ToshPTI bekti.

2020.22.10.

<p>SALOMLATIK – TUMAN BOYLIGI – KIZILORDA VILAYETI – YOG’DOSTOSSHAM PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K. Hayitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova A. Valiyev, A.A. Kudaybergenov, Nashr uchun mas’ul: R. G‘o‘chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay’ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o‘rinbosari), A.M. Mannanov, D.A. Ahmedova, S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223</p>
			<p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>